

**O'zaro hamkorlik aloqalari bo'yicha**  
**SHARTNOMA** 97

Toshkent shahri

2021-yil "14" 12

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 28 maydagi 08/1-812-sonli topshirig'i yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida 2020 yil 5 mart kuni o'tkazilgan 19-sonli yig'ilish bayonining 15-bandiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi huzuridagi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish ilmiy tadqiqot instituti moddiy texnika bazasini mustahkamlash va uning faoliyatini tubdan takomillashtirish yuzasidan Chora-tadbirlar dasturining 11-bandida belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi (keyingi o'rinlarda - Davlat ekologiya qo'mitasi) nomidan qo'mita nizomi asosida faoliyat yurituvchi qo'mita raisi o'rinbosari Boqijonov Islom Ismoilovich, bir tomondan va Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti (keyingi o'rinlarda - TIQXMMI) nomidan institut nizomi asosida faoliyat yurituvchi birinchi prorektor Mirzayev Bahodir Suyunovich, ikkinchi tomondan ushbu ikki tomonlama innovatsion hamkorlik shartnomasini tuzdilar.

**Shartnomaning mazmuni**

Ekologiya va atrof muhit muhofazasi sohalari uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlovchi oliy o'quv yurti bilan hamkorlikni kuchaytirish, bunda ta'lim sifatini yaxshilash maqsadida ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasida ta'lim oluvchi magistrant va mustaqil izlanuvchilarni qo'mitadagi ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish va ularning diplom va dissertatsiya ishlarini institut bazasidan foydalangan holda bajarishga sharoit yaratish va ularning o'rtasida o'zaro manfaatli innovatsion hamkorlikni o'rnatish.

**1. Umumiy qoidalar**

1. Tomonlar amaldagi qonun va qonunosti hujjatlaridan kelib chiqib ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida o'zaro hamkorlikni amalga oshiradilar.

2. Shartnomani tuzishdan ko'zlangan asosiy maqsad - ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi ilmiy-tadqiqot, innovatsion va ekologik ta'limni takomillashtirish, kuchaytirishdan iborat.

3. Institut bazasida magistrantlarning malakaviy amaliyotlarini tashkillashtirish, o'quv rejalari va fan dasturlariga real iqtisodiyot sub'ektlari talablariga mos ravishda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha o'rnatilgan tartibda takliflarni ishlab chiqish.

4. TIQXMMI professor-o'qituvchilari, doktorantlari (PhD, DSc), mustaqil izlanuvchilari va magistrantlarining ilmiy-tadqiqot faoliyatlari natijasida yaratilayotgan ishlanmalarni ishlab chiqarishga o'z vaqtida joriy etish.

5. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohalari uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, mutaxassislar malakasini oshirish, soha fanini jadal rivojlantirish va o'quv muassasalari hamda ilmiy-tadqiqot instituti o'rtasidagi aloqa tizimini takomillashtirish, shuningdek ularning o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikni o'rnatish;

6. Yuqori malakali mutaxassislar, jumladan ilmiy va ilmiy – pedagogik kadrlar va magistrlar tayyorlashda institutning moddiy texnik bazasi va salohiyatidan foydalanish hamda o'quv va ilmiy-tadqiqot muassasalari salohiyati va bazasidan unumli foydalangan holda ularni rivojlantirish;

7. Xamkorlik bo'yicha shartnomani amalga oshirish koordinatorlar institut tarafidan "Ekologiya va suv resurslarini boshqarish" kafedrası, ikkinchi tomondan O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi kadrlar bo'limi boshlig'i orqali amalga oshiriladi.

## **2. Tomonlarning hamkorlik yo'nalishlari**

8. Tomonlar quyidagi yo'nalishlarda o'zaro hamkorlik aloqalarini olib boradi:

- ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishda ta'lim tizimini takomillashtirishga oid dasturlar ishlab chiqish;

- ekologik ta'lim tizimini takomillashtirish orqali yurtimizda barqaror ekologik muhitni shakllantirish va shu asosda ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan takliflar ishlab chiqish hamda ularning amalga oshirishni tashkil etish;

- ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish yo'nalishlari va mutaxassisliklarida o'qitish jarayonini takomillashtirish yuzasidan doimiy hamkorlik qilish;

- ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasiga oid ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni takomillashtirish;

- aholi, talabalar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan ekologik ta'lim va tarbiya ishlarini zamonaviy turlarini amalga oshirish.

## **3. Tomonlarning hamkorlikdagi vazifalari**

**9. Davlat ekologiya qo'mitasi TIQXMMI bilan o'zaro quyidagi tadbirlarni amalga oshiradi:**

- ekologik ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari, yo'l xaritalarini, mazkur sohaga oid qonun hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish hamda ularning ijrosini birgalikda tashkil etish;

- TIQXMMI da ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasi bo'yicha o'qitiladigan fanlar sifatini yanada oshirish maqsadida o'zaro takliflar ishlab chiqish;

- Institutda TIQXMMI ning ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasiga oid yo'nalishlarida ta'lim olayotgan talabalar uchun amaliyot darslarini tashkil etish;

- TIQXMMI va Davlat ekologiya qo'mitasi tizimi uchun ekologiya sohasida zarur darsliklar, o'quv va amaliy qo'llanmalar tayyorlash hamda ularni birgalikda chop etish;

- TIQXMMI Davlat ekologiya qo'mitasining davriy nashrlari obunasini keng miqyosda tashkil etish;
- ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasiga oid ilmiy tadqiqot faoliyatini takomillashtirish yuzasidan hamkorik qilish, Institut faoliyatiga tajribali professor-o'qituvchilarni jalb qilish;
- ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida ilmiy ishlar olib borayotgan yosh olimlardan iborat guruhlar va klublarni qo'llab-quvvatlash;
- TIQXMMI o'quv rejalari va dasturlarini, ta'lim standartlarini hamkorlikda ishlab chiqish va takomillashtirib borish;
- xalq xo'jaligi sohasining ekotizimlarga va inson salomatligiga salbiy ta'sirini kamaytirish masalalariga qaratilgan ilmiy-amaliy seminarlar, davra suhbatlari va konferensiyalar tashkil qilish;
- hamkorlikda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunchilikka rioya etish, qonunbuzarliklarning oldini olish, mazkur sohada aholining ekologik madaniyati va ekologik ongini kuchaytirish masalalarida targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish;
- TIQXMMI tomonidan bakalavriat va magistratura bitiruvchilariga qo'yiladigan malakaviy talablarga mos ravishda ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligi davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari va fan o'quv dasturlariga, malakaviy bitiruv ishlariga va magistrlik dissertatsiyalarga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflar berish;
- TIQXMMI bakalavriat va magistratura bitiruvchilariga bo'lgan ehtiyojini aniqlash va shunga mos ravishda ularning malakaviy va ishlab chiqarish amaliyotini Davlat ekologiya qo'mitasida o'tashlarini tashkillashtirish;
- TIQXMMI ning soha talabalari va mutaxassisliklariga tegishli faoliyat to'g'risida ma'lumotlar bazasini (faoliyat turi, ishlab chiqarish hajmi, institutdagi ilmiy xodimlar va mutaxassislar tasnifi va boshqalar) to'plash;
- Davlat ekologiya qo'mitasining ilmiy kadrlarga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqib, uning kadrlar bazasini birgalikda shakllantirib borish;
- ilmiy texnik va texnologik muammolar bankini tahlil qilish va saralash asosida institut va kafedraning ilmiy-tadqiqot hamda innovatsion ishlarining yo'nalishlari va namunaviy mavzulari ro'yhatini shakllantirish;
- namunaviy mavzular asosida bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik dissertatsiyalari, falsafa doktori va doktorlik ilmiy darajalarini olish uchun dissertatsiyalar hamda davlat ilmiy texnik dasturlari doirasida bajariladigan fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarning mavzularini shakllantirish;
- namunaviy mavzular bo'yicha bajariladigan bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik dissertatsiyalari, doktorlik dissertatsiyalari hamda davlat ilmiy texnik dasturlari doirasida bajariladigan fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarga qo'mitaning yetakchi professor-ilmiy xodimlarini ilmiy rahbar, maslahatchi va ijrochi sifatida jalb etish;

- Markaziy Osiyo mintaqasida turli sanoat tarmoqlarining atrof-muhitga ta'sirini bashorat qilish maqsadida ekotizimlarni matematik modellashtirish masalalari bo'yicha tadqiqotlar olib borish;

- TIQXMMI va kafedrada soha korxonalarida mavjud bo'lgan muammolarni hal etish bo'yicha bajarilgan ilmiy va amaliy ishlarning natijalarini ishlab chiqarish korxonalariga taqdim etish;

- o'zaro hamkorlikda bajarilgan ishlarning natijalarini targ'ibot qilish, monografiyalar va tavsiyanomalar yozishda va nashr etishda institutning professor va ilmiy xodimlari bilan hammualliflik qilish;

- o'zaro hamkorlikda tayyorlangan innovatsion ishlanmalarni Davlat ekologiya qo'mitasining tegishli korxonalarida va xalq xo'jaligining turli sohalari, tog'-kon metallurgiyasi korxonalarida joriy qilishda ishtirok etish.

- ishlab chiqarish korxonalarini bilan xo'jalik shartnomalari tuzish, ilmiy-amaliy va innovatsion loyihalar bo'yicha tanlovlarda ishtirok etish uchun hamkorlikda ilmiy loyihalar mavzularini shakllantirish, tayyorlash, tanlovlarga taqdim etish va bajarish.

#### **4. Shartnomaga ayrim qo'shimchalar**

10. Tomonlar mazkur shartnomada ko'rsatilgan hamkorlikdagi tadbirlarni va vazifalarini amalga oshirish uchun bir-birlaridan zarur bo'lgan ma'lumot hamda axborotlarni olishlari mumkin.

11. Bir tomonning talabi bevosita boshqa bir tomonning faoliyatiga dahldor bo'lib, uning amalga oshirilishi uning faoliyatiga zarar keltirish bilan bog'liq bo'lsa, talabni qabul qilgan tomon, uni bajarishni rad etish huquqiga ega.

12. Tomonlar ularning muayyan faoliyati o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lib, bu ularning rivojiga ijobiy ta'sir o'tkazganda, mazkur faoliyat bo'yicha mavjud ma'lumotlar bazasiga ulanishi yoki o'zaro birgalikda dasturiy ta'minot yaratishi mumkin.

13. Tomonlar mazkur Shartnomada qayd etilgan tadbirlarni bajarilishini tashkil etish bo'yicha maxsus ishchi guruhi tuzadilar va ushbu ishchi guruhining bir yilda kamida ikki marta o'tkaziladigan yig'ilishlarida shartnoma ijrosini muhokama qilib boradilar.

14. Mazkur shartnoma qoidalarini talqin qilish va qo'llashga doir bahs va kelishmovchiliklar o'zaro muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

#### **5. Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish hamda amal qilish muddati**

15. Tomonlarning o'zaro roziligi bilan shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin. Ular ushbu shartnomada belgilangan tartibda kuchga kiradigan va kuchga kirish paytidan boshlab uning ajralmas qismi hisoblanadigan alohida bayonnomalar bilan rasmiylashtiriladi.

16. Shartnoma tomonlar ishtirokchi bo'lgan boshqa shartnoma va kelishuvlarning davomi hisoblanadi hamda boshqa kelishuvlarda qayd etilgan huquq va majburiyatlarga dahl qilmaydi.

17. Shartnoma imzolangan kundan e'tiboran boshlab kuchga kiradi va unda ko'rsatilgan vazifalar va majburiyatlar to'liq ado etilguniga qadar amalda bo'ladi.

18. Shartnoma ikki asl nusxada tuzildi. Bunda barcha nusxalar bir xil yuridik kuchga ega.

## 6. Tomonlarning yuridik manzillari

**“TASDIQLAYMAN”**

**O‘zbekiston Respublikasi  
Ekologiya va atrof muhitni muhofaza  
qilish davlat qo‘mitasi  
raisi o‘rinbosari**

**I. Boqijonov**

2021-yil “9” 12

100077, Toshkent shahri,  
Chilonzor tumani, Bunyodkor  
shoh ko‘chasi, 7A-uy  
Tel:+99871 207-07-70 (1000#)  
Тел./факс:+99871 207-07-70 (1000#)

**“TASDIQLAYMAN”**

**Toshkent irrigatsiyava qishloq  
xo‘jaligini mexanizatsiyalash  
muxandislari instituti  
birinchi prorektori**

**B.Mirzayev**

2021-yil “14” 12

100000, Toshkent shahri,  
Qori Niyoziy ko‘chasi, 39-uy  
Тел.: +99871 237-19-26  
тел/ факс:+99871 237-19-26

*1000 Mirzayev*